



Zahro ISLOMOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti ingliz tili fani o'qituvchisi

E-mail: zahroislomova2484@gmail.com

QarDU professori, f.f.d. N. Yuldosheva taqrizi asosida

EXPRESSION OF AXIOLOGICAL UNITS IN FOLK ORAL CREATIVITY

Annotation

This article examines the expression of axiological units in folk oral creativity. Axiological units are key linguistic elements that reflect national culture, traditions, and values, frequently appearing in proverbs, sayings, legends, epics, and folk songs. The study analyzes the semantic, pragmatic, and linguocultural aspects of these units and their moral and aesthetic significance in society.

Key words: Axiological units, folk oral creativity, values, proverbs, legends, epics, cultural heritage.

ВЫРАЖЕНИЕ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В НАРОДНОМ УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается выражение аксиологических единиц в народном устном творчестве. Аксиологические единицы являются основными языковыми элементами, отражающими национальную культуру, традиции и ценности, и широко встречаются в пословицах, поговорках, легендах, сказаниях, эпосах и народных песнях. В ходе исследования анализируются семантические, прагматические и лингвокультурологические аспекты этих единиц, а также их нравственная и эстетическая значимость в обществе.

Ключевые слова: Аксиологические единицы, народное устное творчество, ценности, пословицы, легенды, эпосы, культурное наследие.

XALQ OG'ZAKI IJODIDA AKSILOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodida aksiologik birliklarning ifodalanishi tahlil qilinadi. Aksiologik birliklar milliy madaniyat, urf-odatlar va qadriyatlarni aks ettiruvchi asosiy til birliklari bo'lib, ular maqollar, matallar, rivoyatlar, afsonalar, dostonlar va xalq qo'shiqlari tarkibida ko'p uchraydi. Tadqiqot davomida ushbu janrlardagi aksiologik birliklarning semantik, pragmatik va lingvokulturologik jihatlarini o'rganilib, ularning jamiyatdagi axloqiy va estetik ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Aksiologik birliklar, xalq og'zaki ijodi, qadriyatlar, maqollar, rivoyatlar, dostonlar, madaniy meros.

Kirish. Aksiologiya — bu qadriyatlar va ularning insoniyat uchun ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan fan. Aksiologik leksika xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan maqol, matal va hikmatli so'zlar, iboralarda o'z aksini topishi va bu orqali xalqning ana shu tushunchaga bo'lgan munosabatini ifodalab kelishi mumkin. Aksiologik tilshunoslikda qadriyat va antiqadriyat aksiologema tushunchasi bilan ifodalanadi. Bu termini ilk bor maqollar semantikasini tekshirish asosida K.A.Jukov tilshunoslikka olib kirdi[10]. Turli tillarda va madaniyatlarda qadriyatlar, an'analar, va ijtimoiy normativlar qanday ifodalanganini o'rganish, aksiologik farqlarni anglashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalq so'zlarida aksiologiya insoniyatning ko'p asrlik tajribasi, axloqiy tamoyillari va madaniy qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Bu maqol va matallar orqali turli xalqlarning dunyoqarashi, an'analari va hayotiy tajribasi ifodalanadi. Xalq so'zlari, masalan, maqol va matallarda, qadriyatlar ko'pincha qisqa va ifodali shaklda namoyon bo'ladi.

CHORIQ

Qattiq xom teridan tikilgan, asosan tog'lik hududlar xalqlari orasida rasm bo'lgan oyoq kiyimi.

Nodoni siylasang, chorig'i bilan to'rga chiqar. Maqol.

— Omon mergan maxsi ustidan choriq kiyib olgan, oyog'i yengil, qorga botmasdi.

Choriq sudramoq

Biri ikki bo'lmay, hech narsaga yolchimay kun kechirmoq.

Qiyinchilikka qiyin, bolam. Lekin chorig'imizni sudrab yuribmiz. Oybek, Tanlangan asarlar.

Yuzi choriq

Yuzi shumshuk; yuzi xunuk.

Borning yuzi yorug', yo'qning yuzi choriq. Maqol.

OBDASTA [f. مەستابا — qo'l (yuvaladigan suv)]

Ro'zg'or buyumi; yuz-qo'l yuvish uchun ishlatiladigan uzun va ingichka jo'mrakli, qorni keng, bo'g'zi tor idish.

Sopol obdasta. Cho'yan obdasta.

— Xafiza obdasta bilan dastsho'y olib kirib, buvisining qo'lini atirsovun bilan yuvdirdi. Mirmuhsin, Umid.

Obdasta samovar

Obdasta shaklidagi mahalliy samovar.

Obdasta tutmoq

Obdastadan suv quyib turib, qo'lini yuvdirmoq.

Puchuk obdasta

O'ziga aloqasi yo'q yoki aqli yetmaydigan gap-so'zga, ishga aralashaveradigan kishiga qarata, uni kamsitib, tanbeh yuzasidan aytiladigan ibora.

— Sen puchuk obdasta, o'lgurga kim qo'yibdi birovlarning ishiga aralashishni? S.Ahmad, Cho'l shamollari.

OBTOVA [f. مەتبۇعا — qo'lga suv quyiladigan idish] shv.

Obdasta.

U g'azabini arang bosib, o'rnidan turdi, supa labidagi obtovadan hovuchiga suv quyib, qizining yuziga sepd.

Tadqiqot metodologiyasi. Xalq og'zaki ijodining asosiy janrlari — ertaklar, maqollar va matallar, dostonlar — qadriyatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ertaklarda ezgulik va yovuzlik, mardlik va qo'rqoqlik kabi qadriyatlar personajlar va ularning harakatlari orqali ko'rsatiladi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida mehnatsevarlik va halollik qadriyat sifatida yuksak baholanadi.[7]

Maqollar xalq hayotiy tajribasining aforistik ifodasidir. Ular orqali jamiyatning qadriyat tizimi aks ettiriladi. Misol uchun, "Besh qo'l barobar emas" maqoli insonlar o'rtasidagi farqlarni qadrlash zarurligini bildiradi. Dostonlar esa milliy va ma'naviy qadriyatlarni keng yoritadi. "Alpomish" dostoni orqali vatanparvarlik, jasorat va oilaga sadoqat kabi qadriyatlar targ'ib qilinadi.[6]

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Xalq og'zaki ijodidagi aksiologik birliklarni o'rganish orqali milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga hissa qo'shish mumkin.

Aksiologik birliklarning vazifalari

Axloqiy tarbiya berish:

Yosh avlodga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish, ijtimoiy qadriyatlarini singdirish.

Madaniy merosni saqlash:

Qadimiy urf-odatlar va an'analarni kelajak avlodga yetkazish.

Jamiyatni birlashtirish:

Milliy o'zlikni va birdamlikni mustahkamlash.

Mazkur tahlillar orqali til va madaniyatning qadriyatlarini ifodalashdagi farqlari va o'xshashliklarini ochib berish mumkin.[4, 298-300]

Umumiy tahlil:

Aspekt

O'zbek maqoli

Ingliz maqoli

Denotativ ma'no

Ko'pchilik bilan hamjihatlik qadrli

Ko'pchilik ishlasa, ish yengillashadi

Konnotativ ma'no

Yolg'izlik zaiflikni bildiradi

Har bir insonning ishtiroki qadrlil

Metafora

SHo'ridan suv olinmaydi (insonning ahamiyatsizligi)

Ko'plab qo'llar ishini yengillashtiradi

Madaniy kontekst

Kollektivchilik va o'zaro yordam

Har bir a'zo birgalikdagi mehnatni ifodalaydi

Ushbu tahlil Semantik tahlil metodi yordamida o'zbek va ingliz tillaridagi aksiologik birliklarning asosiy va qo'shimcha ma'nolari hamda ularning madaniy xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. Har ikkala maqol birgalikda ishlashning ahamiyatini ta'kidlagan bo'lsa-da, ularning konnotativ va metaforik jihatlarini madaniy kontekstda farq qiladi.

Har bir tahlil metodining o'ziga xos jihatlar bor:

Semantik tahlil

birliklarning chuqur ma'no qatlamlarini ochib beradi.

Diskurs tahlili

birliklarning ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Korpus lingvistikasi

statistik yondashuv orqali dalillarni mustahkamlaydi.

Kognitiv tahlil

xalq dunyoqarashini tushunishga yordam beradi.

Pragmatik tahlil

birliklarning amaliy maqsadini aniqlaydi.

Aksiologik tahlil metodlari va qadriyatlarining tadqiqi

Xalq og'zaki ijodidagi qadriyatlarini tadqiq qilishda semantik, diskursiv, va pragmatik tahlil usullari qo'llaniladi. Ushbu metodlar qadriyatlarining ma'no qatlamlarini, ijtimoiy va madaniy kontekstlarini, shuningdek, ularning amaliy ahamiyatini chuqur o'rganishga yordam beradi[5].

1. Semantik Tahlil

Semantik tahlil orqali qadriyatlarini ifodalovchi birliklarning denotativ va konnotativ ma'nolari aniqlanadi. Bu yondashuv yordamida qadriyatlarining asosiy mazmuni va ular ortidagi ma'no qatlamlari ochib beriladi. Masalan:

O'zbek Maqoli: "Ona yurt – oltin beshik" iborasi yurtning muqaddasligi va tug'ilish joyi sifatidagi ahamiyatini ifodalaydi.

Ingliz Ekvivalenti: "Motherland is a golden cradle" iborasi milliy qadriyatlarini aks ettiradi.

2. Diskursiv Tahlil

Diskursiv tahlil qadriyatlarining ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday qo'llanilishini aniqlashga yordam beradi. Bu metod qadriyatlarining real nutqiy muhitdagi ifodalari va ularning kommunikativ maqsadini o'rganadi. Misollar:

O'zbek Maqoli: "El bilan eson, yolg'iz bilan yomon" iborasi jamoaviylikni targ'ib qiluvchi ijtimoiy kontekstda ishlatiladi.

Ingliz Ekvivalenti: "United we stand, divided we fall" iborasi jamoaviy birdamlikni ta'kidlaydi.

3. Pragmatik Tahlil

Pragmatik tahlil qadriyatlarining nutqiy maqsadini va ularning amaliy vaziyatlardagi rolini o'rganishga qaratilgan. Ushbu yondashuv qadriyatlarining ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. Masalan:

O'zbek Maqoli: "Yomonni yomon dema, o'zing yomon bo'lasan" iborasida boshqalarga nisbatan yumshoq munosabat zarurligi pragmatik jihatdan asoslanadi.

Ingliz Ekvivalenti: "Do not judge, lest you be judged" iborasi xuddi shu ma'noni anglatuvchi kontekstda qo'llaniladi.

Aksiologiya qadriyatlar nazariyasi sifatida qadriyatlarining mohiyati, turlari va shakllanish jarayonlarini o'rganadi. Xalq og'zaki ijodida qadriyatlar asosan axloqiy va estetik mazmun kasb etib, yaxshilik, halollik, sadoqat (axloqiy qadriyatlar), go'zallik va uyg'unlik (estetik qadriyatlar) kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Bu qadriyatlarining lingvistik shakllanishi esa lingvistik aksiologiyaning tadqiqot sohasiga kiradi[9]. Til qadriyatlarini yetkazish vositasi bo'lib, qadriyatlarining lingvistik birliklar orqali qanday ifodalanishini o'rganish asosiy yo'nalishlardan biridir. Masalan, "Halollik eng katta boylik" iborasida halollik qadriyat sifatida namoyon bo'ladi[8].

Xulosa va takliflar. Mazkur tahlillar o'zbek va ingliz xalq og'zaki ijodidagi aksiologik birliklarni tadqiq qilishda madaniy va til o'xshashliklarini va tafvutlarini ochib berishga imkon yaratadi. Bu metodlar qadriyatlarining chuqur semantik tahlildan boshlab ularning ijtimoiy kontekstdagi rolini va amaliy ahamiyatini tahlil qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Natijada, til va madaniyatning bir-biriga bog'liq jihatlarini chuqur tahlil etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно. – Тошкент: Фан, 2012. – Б.56.
2. Нёзматов Х., Менглиев Б. Ф. Фуломнинг лисоний имкониятлардан фойдаланиш маҳорати. Ф.Фулом ва давримиз (Тўплам). – Қарши, 2003. – Б. 81.
3. Islomova Z. Research of axiological lexicon in Uzbek and English languages // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Special Issue – 1 (2024) / ISSN 2181-3701 –B. 245-249.
4. Islomova Z. O'zbek tilshunosligida aksiologik birliklarning o'rganilishiga doir // O'zMU xabarlarlari. – Toshkent, 2024. №1/9/1 –B. 298-300.
5. Islomova Z. On the Study of Axiological Units in Uzbek Linguistics // American Journal of Education and Evaluation Studies, Vol.1, No.7 (Oct, 2024), E-ISSN: 2997-9439 –P. 306-309
6. Karimov A. O'zbek xalq maqollari va ularning semantik xususiyatlari. – Toshkent: Sharq, 2010.
7. Rahmatullayev Sh. R. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Fan, 2005.
8. TILAVOV, D. (2024). THE MAIN FUNCTIONS OF MANAGEMENT TERMS. UzMU xabarlarlari, 1(1.3. 1), 205-208.

-
9. Yuldosheva N. Sodda gap qoliplari nutqiy voqelanishining lisoniy va nolisoniy omillari: Filol. fan. d-ri ... diss. –Qarshi, 2023. – B.218.
 10. Vereschagin E. M., Kostomarov V. G. Язык и культура. – Москва: Русский язык, 1983.